

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>Х.А.Абдурасулов</b>	
Экономическая история Туркестана в "Большой игре" Питера Хопкирка .....	338
<b>Sh.S.Shodiyeva</b>	
Afg'oniston matbuotining Buxoro amirligi hududiga tarqalishi tarixiga doir.....	343
<b>Sh.M.Abdusatorov</b>	
Gastroturizm sohasini rivojlantirishning ba'zi nazariy masalalari.....	348
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
XX asrning 20-yillarida Farg'ona viloyatida ta'lim tizimi (Farg'ona viloyat davlat arxividagi hujjatlar misolida) .....	353
<b>G'.A.Raxmonov</b>	
Farg'ona vodiysida suv xavfsizligi borasidagi yondashuvlar .....	358
<b>M.Y.Umarova</b>	
Temuriy Malika Gavharshodbegim tug'ilgan oila va uning Amir Temur davridagi hayoti .....	361
<b>S.B.Yuldashev</b>	
The Faragina – a regular military structure in the Abbasid's army .....	366
<b>X.X.Mamajonov</b>	
Turk tarixshunosligida Amir Temur tarixining o'rganilishi va rivojlanish bosqichlari.....	373

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>D.Sh.Kodirova</b>	
O'zbek tili konchilik terminlarining terminografiya talablari asosida terminologik lug'atlarga kiritilishi .....	377
<b>N.T.Zaylobova</b>	
Muloqot xulqining oliy ko'rinishi .....	384
<b>D.O.Xamidova</b>	
Luqmon Bo'rixonning "jaziramadagi odamlar" romanida ruhiyat .....	389
<b>A.N.Nasirov</b>	
Xarakter evolyutsiyasining ruhiy-psixologik asosi .....	396

#### TILSHUNOSLIK

<b>Ф.Ш.Алимов, Р.А.Фахрутдинова</b>	
Лингвистические факторы формирования письменной речи в условиях цифровизации.....	402
<b>Талантбек кызы Альбина, К.С.Шакиров, Э.И.Ибрагимова</b>	
Формирование информационно-коммуникационные готовности у педагогов дошкольного образования в условиях непрерывного профессионального образования .....	408
<b>O.Q.Sobirov, Sh.I.Shokirov</b>	
Ingliz tilida qurilish terminlarini semantik xususiyatlari.....	417
<b>D.A.Ganiyeva</b>	
To'liqsiz va bog'lama fe'llarda sinkretizm va polifunksionallik.....	422
<b>A.M.Mamarasulov</b>	
Leksik sistemaga onomasiologik yondashuv.....	426
<b>N.Xamidov</b>	
Turli tizimli tillardagi antroponimlarda erkalash-kichraytirish ma'nolarining ifodalanishi .....	432
<b>С.Э.Саидова</b>	
Мулоҳизаҳо оиди лингвистикаи ареалӣ дар мисоли шеваҳои аҳолии сурхондарёи шарқӣ.....	437
<b>Г.М.Мансурова</b>	
Проблемы понимания на слух у студентов технических вузов .....	441
<b>Ф.А.Темирова</b>	
Методологический анализ подходов к составлению идиоматического словаря на примере HSG: сравнение, особенности и рекомендации .....	445
<b>Ш.М.Султонова, Г.Ф.Нишонова</b>	
Теоретические предпосылки изучения антропонимов в переводческом аспекте.....	449

**XX ASRNING 20-YILLARIDA FARG'ONA VILOYATIDA TA'LIM TIZIMI  
(Farg'ona viloyat Davlat arxividagi hujjatlar misolida)**

**СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В 20-ГОДЫ ХХ ВЕКА  
(На примере документов Государственного архива Ферганской области)**

**EDUCATION SYSTEM IN FERGANA REGION IN THE 20s OF THE XXth CENTURY  
(Using the example of documents from the State Archive of the Ferghana region)**

**Nizomiddinov Odiljon Baxodirovich<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Rossiyadagi Oktabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda, xususan Farg'ona viloyatidagi ta'lim tizimining holati, savodsizlik masalalari, yangi sovet maktablarini tashkil etilishi kabi ma'lumotlarning arxiv hujjatlarida yoritilishi tahlil etilgan. Shuningdek, maktablardagi o'quvchilarning milliy va jinsiy tarkibi, yosh jihatdan tafovutlari xususida ham to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, texnikumlar, maktablar va bog'chalarda ta'minot tizimi qanday shakllantirilgani, ularni qay tarzda taqsimlanishi haqida ham so'z yuritilgan. Maqolada Farg'ona viloyat davlat arxivi fondlarida xalq xo'jaligi uchun kadrlar yetkazib berishni ta'minlovchi bilim yurtlariga qabul jarayonini tashkil etilishi haqidagi qimmatli ma'lumotlarning tahlili ham aks ettirilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируется отражение в архивных документах информации о состоянии системы образования в Туркестане, в частности в Ферганской области, вопросы неграмотности, создание новых советских школ после октябрьского переворота в России. Также освещены национальный и гендерный состав учащихся школ, а также их возрастные различия. Кроме того, также обсуждены вопросы формирования системы снабжения и ее распределения в техникумах, школах и детских садах. В статье также проанализирована ценная информация об организации процесса приема в образовательные учреждения, обеспечивавших выпуск кадров для народного хозяйства, отраженная в фондах государственного архива Ферганской области.*

**Abstract**

*The article analyzes the reflection in archival documents of information on the state of the education system in Turkestan, in particular in the Fergana region, issues of illiteracy, and the creation of new Soviet schools after the October coup in Russia. The national and gender composition of school students, as well as their age differences, are also covered. In addition, issues of forming a supply system and its distribution in technical schools, schools and kindergartens were also discussed. The article also analyzes valuable information about the organization of the admission process to educational institutions that ensure the production of personnel for the national economy, reflected in the funds of the state archive of the Fergana region.*

**Kalit so'zlar:** *Oktabr to'ntarilishi, proletkult, Maorif xalq komissarligi, Skobelev, Turkiston, Harbiy kommunizm, partiya, fond, Adliya boshqarmasi, rubl, uezd, volost.*

**Ключевые слова:** *Октябрьский переворот, пролеткульт, Наркомпрос просвещения, Скобелев, Туркестан, Военный коммунизм, партия, фонд, Отдел юстиции, рубль, уезд, волость.*

**Key words:** *October coup, proletkult, People's Commissariat of Education, Skobelev, Turkestan, Military Communism, party, fund, Department of Justice, ruble, uezd, volost.*

**KIRISH**

Rossiyadagi 1917-yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalardagi keskin burilishlar madaniy hayotda ziddiyatli, bir-biriga qarama-qarshi jarayonlarni vujudga keltirdi. Bolsheviklar hokimiyati o'zining dastlabki kunlaridanoq o'tmish madaniyatidan farqlanuvchi "yangi madaniyat"ni yaratishni maqsad qilib qo'ydi. Shu asosda proletkult (proletar madaniyati) nazariyasini ishlab chiqdi. Uning g'oyaviy va ma'naviy rahnamolari (A.A.Bogdanov, V.F.Pletnev) qarashlarida milliy-an'anaviy madaniyatdan voz kechish, o'tmish madaniy merosni inkor etish tamoyillari yotar edi. Proletkult ikki muhim vazifani amalga oshirishni maqsad qilgan edi – eski "dvoryan" madaniyatini yo'q qilish va yangi "proletar" madaniyatni yaratish [1:333]. Birinchi vazifa "muvaffaqiyatli" amalga oshirilgan bo'lsa, ikkinchisi omadsiz tajribaga aylandi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Oktyabr to'ntarishidan keyingi Turkistonda yangi sovet maktablarini tashkil etish vazifasi ilgari surildi. Bu vazifani amalga oshirishda 1917-yilda tashkil etilgan Maorif xalq komissarligining o'rni katta

bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning birinchi xalq komissari K.Ya.Uspenskiy bo'lib, u rahbarlik qilgan komissarlik zimmasiga barcha maktablar bilan birgalikda diniy maktablarni ham nazorat qilish huquqi berilgandi [2:31-37]. Shu bois ta'lim tizimini, xususan maktablarni nazorat qilish va ularni har tomonlama o'rganish 1920-yillarda tubdan o'zgardi. Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda sovet hukumati tomonidan 1920-1930-yillarda o'tkazilgan ta'lim tizimidagi o'ziga xos jarayonlar, xususan Farg'ona vodiysida ham aholining ijtimoiy-madaniy hayotiga ta'siri hamda ularning maishiy turmushidagi ahamiyati kabi jihatlarini tadqiq etish ushbu mavzuning qanchalar o'rganilish darajasini muhim ekanligini anglatadi. 1917-yildan 1937-yilgacha bo'lgan davrda RSFSR Maorif Xalq komissarligiga rahbarlik qilgan A.B.Lunacharskiy asarlari ham muhim ahamiyatga ega [3:71]. Ular o'z tahlillarida Turkistodagi ta'lim tizimining sovet davlati siyosati bilan chambarchas bog'liqligi xususida to'xtalib o'tganlar. Aksariyat tadqiqotlarda (Ahmedov R.R., Ergasheva M.G.) Turkistondagi ta'lim tizimi tahlil qilingan, masalaga umumiy hudud doirasida yondoshilgan. Shu bois ushbu maqolada aynan bir hudud, ya'ni Farg'ona viloyatidagi ta'lim va uning holati xususida to'xtalib o'tilgan. Keltirilgan ma'lumotlar Farg'ona viloyat davlat arxivi hujjatlari asosida yoritilgan va tahlil qilingan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Sovet hukumati ta'lim tizimida erkinlik, oshkorlik kabi tamoyillarini ilgari sursa-da, joylardagi ta'lim muassasalarining ahvoli nihoyatda og'ir edi. Viloyat davlat arxivi fondlarida yangidan tashkil etilgan sovet maktablaridagi ahvol haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Masalan, arxivning 229-fondida viloyatdagi mavjud maktablar faoliyati va undagi kamchiliklar haqida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, 1918-yil 11-iyul kuni Skobelev uездidagi Xalq bilim yurtlari nazoratchi – inspektorlar tomonidan tekshirilgan. Tekshiruv natijalariga ko'ra, uездdagi ta'lim maskanlarida kamchiliklar juda ko'p bo'lib, ular quyidagicha yoritilgan: 1) ta'lim muassasalari yetarli emas; 2) Maktablarga qarashli bo'lgan binolarning aksariyati talab darajasida emas; 3) Maktab jihozlari juda yomon ahvolda, darsliklar juda kam, ba'zi maktablarda darsliklar deyarli yo'q, kutubxonalar juda kambag'al; 4) Maktablarda mehnat ta'limi (qo'l mehnati va hunarmandchilik) yo'q yoki juda kam. [4:20]. Shundan holatlar aniqlanib ko'zga tashlansa-da, Skobelev uездidagi maktablarni yangicha sharoitga moslash uchun hech qanday ko'rsatamlar berilmagan.

Mamlakatdagi har bir toifa, millat va ularning jinsidan qat'iy nazar ularni savodli qilish zarurati kundun-kunga oshib, zaruratga aylanib bordi. Shu bois ayollar savodsizligiga barham berish va ularni maorif sohasidagi ishlarga jalb qilish uchun ularni ham o'qitish zarur edi. Lekin mahalliy xotin-qizlarni maorif maskanlariga jalb qilish oson bo'lmagan. Mavjud maktab va hunar-texnika o'quv yurtlarida mahalliy millatlar qizlari o'quvchilarning 7 – 8 foizini tashkil etardi. Afsuski, qizlarni maktabga jalb etishda shoshma-shosharlik, urf-odatlar va an'analarni hisobga olmaslik bir qator murakkabliklarni keltirib chiqargan. Xotin-qizlar uchun alohida maktablar, xotin-qizlardan o'qituvchi pedagoglar bo'lishi kerak edi. Bu muammoni hal etish uchun sovet hukumati respublikaning bir qator shaharlarida xotin-qizlar uchun maxsus pedagogika texnikumlari ochdi [5:349]. Bunday o'quv yurtlari Farg'ona viloyatida ham ochildi. Bu haqidagi ma'lumotlar ham viloyat davlat arxivi fondlarida mavjud. Masalan, 1919-yil 7-may kuni Skobelev uezdi Yangi Chek qishlog'ida qizlar maktabi ochilib, unga Bibi Sharifboyeva va Tojiniso Sotiboldiyevalar o'qituvchi etib tayinlanadi [6:159].

Shuni alohida ta'kidlab o'tib kerakki, dastlabki davrda sovet tipidagi milliy maktablarning tashkil etilganidan keyingi taraqqiyoti rejadagidek bo'lmagan. Buning sababi birinchi navbatda ta'minot masalasi hisoblangan. Bu masalada shahar maktablari ustun darajada "imtiyoz"ga ega bo'lganlar. Qishloq maktablari esa, bundan mustasno bo'lib, asosiy e'tibor rusiyzabon aholi farzandlari o'qiydigan shahar maktablariga qaratilgan. "Harbiy kommunizm" davrida olib borilgan siyosat tufayli sovet hukumati Turkistondagi xalq ta'limi sohasiga deyarli e'tibor qaratmagan edi, desak xato bo'lmaydi. Dastlabki o'zbek — sovet maktablari mablag'lardan qisib qo'yilgan bo'lib, ularga o'quv vositalari va qo'llanmalar yetishmasdi. Bu ma'lumotlarni arxivda saqlanayotgan 83 fondagi hujjatlar ham tasdiqlaydi. Xususan, unda sovet maktablarida aniqlangan kamchiliklar haqida quyidagicha axborot beriladi:

1. Sovet partiya maktabi binosi maktab uchun moslashtirilmagan yaroqsiz holatda.
2. Ma'ruzachilar yetishmasligi.
3. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan tartibsiz ta'minlanganligi.
4. O'quv qurollarining yetishmasligi.
5. O'z vaqtida yetarlicha mablag' bilan ta'minlanmaganligi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklar ko'rib chiqilgach, Turkiston Ma'rifiy ishlar xalq komissarligi zudlik bilan quyidagi tadbirlarni o'tkazishni taklif qiladi.

## TARIX

1. Sovet maktablaridagi barcha binolarni tekshirib chiqish, agar yuqoridagi kamchiliklar aniqlansa, Viloyat Ijroiya qo'mitasi yordamida boshqa binoga o'quvchilarni o'qitish uchun o'tkazish;

2. Ma'ruzachilar tarkibini qayta ko'rib chiqish va ularning tayyorgarligi haqida tanishib chiqish. Zarurat talab qilsa mahorati va kasbiy faoliyati yetarli darajada bo'lmaganlarini almashtirish, yetishmagan ma'ruzachi-o'qituvchilarni o'rnini to'ldirish. Buning uchun viloyat qo'mitasidan sovet maktablariga javobgar partiya ishchilarini birlashtirish va ularga sovet maktablariga xizmat ko'rsatish vazifasini yuklash. Agar viloyat qo'mitasi tomonidan birlashtirilgan vakil o'z vazifasini bajarmasa bu haqida Nazorat komissiyasiga ularning ism-familiyasi bilan axborot berish;

3. Shu kungacha yetkazib berilgan oziq-ovqat mahsulotlarini qanday tartibda tarqatilganligini tekshirish va axborot berish. Shuningdek, Mintaqaviy oziq-ovqat qo'mitalari oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berishni kechiktirsa, barcha maktab mudirlari bu haqida axborot berishi;

4. Maktabga o'quv qurollari zarur ekanligini aniqlab, tegishli ro'yxat tuzish va zudlik bilan yuborish;

5. Maktab shaxsiy tarkibini ko'rib chiqish. Taqsimlab berilgan shtatlar bir shaklga va tartibga solish. Mablag'larning oxirgi holat bo'yicha taqsimlanishi. Yuborilgan mablag'lar haqida axborot berilishi va ushbu mablag'larni Toshkentdan belgilangan manzilga o'z vaqtida yetib borganligi xususida ogohlantirilishi va qo'shimcha tarzda maktab moliyaviy holatini yanada yaxshilash uchun mahalliy mablag'larni jalb qilib borilayotganligi borasidagi ma'lumotlarni taqdim qilinishi [7:1]. Yuqoridagi ko'rsatilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish uchun qo'llaniladigan takliflar amalga oshirilishi Turkiston Ma'rifiy ishlar xalq komissarligi tomonidan nazorat qilinib boriladi.

Bundan tashqari arxivning 1920-yillarga oid 131-fondidan viloyatdagi maktablarning moddiy ta'minoti haqidagi ma'lumotlarni o'rganishimiz mumkin. Masalan, 1923-yili O'sh shahar Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli maktablarga quyidagi inventar va darsliklar yetkazib berilgan: qizil qalam - 94 dona, yozuv qog'ozi 37 dona, o'zbekcha alfavit - 28 dona, qirg'izcha alfavit - 50 dona, 3 dona o'zbek tilidagi o'quv dasturi, 5 dona qirg'izcha o'quv dasturi, 5 dona ruscha o'quv dasturi, yana qo'shimcha 2 dona komplekt alfavitlar berilgan [8:10]. Ushbu ma'lumotdan biz, O'sh shahridagi aholining etnik tarkibida qaysi millatlarning ustun mavqega ega ekanligini bilib olishimiz mumkin. Viloyat arxivi fondlarida yana O'sh uyezdi volostlarida yangicha tipdagi sovet milliy maktablarini eski maktablar bazasida tashkil etilganligi haqidagi ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, ular 52-fondda Uchqo'rg'on volostidagi Yuqori Uchqo'rg'on va Qizilqiya qishloqlarda yangi maktablarni eski maktablar bazasida tashkil etilishi, Nayman volostida esa umuman maktab yo'qligi, tezlik bilan maktab tashkil etilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud [9:44]. Ushbu maktablarni tezlik bilan tashkil etish jarayoni yangitdan maktablar bunyod etish bilan amalga oshirib bo'lmasdi, shu bois Sovet uslubidagi milliy maktablar asosan eski maktablar va madrasalar o'rnida tashkil etilishi mo'ljallangandi.

Sovet hukumati har tomonlama maktab nazoratini to'la o'z qo'lga olish maqsadida ba'zi bir fanlar tarmog'ini shallantira boshladi. Xususan, Farg'ona viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining 2681-sonli qaroriga asosan 1925-yildan boshlab statistik bilimlarni ommalashtirish maqsadida joriy o'quv yilidan barcha maktablarning II bosqichlarida, uezdlarda mavjud bo'lgan Maxsus kurslar va texnikumlarda statistika fani o'qitilishi yo'lga qo'yiladi [10:147].

Sovet hokimiyati mahalliy milliy maktablar aksariyat qismi ta'minotini mahalliy budjetga bog'lagan va bu joylardagi maktablarning tez orada faoliyatsizligiga sabab bo'lgan edi. Shuning uchun Farg'ona viloyat Ijroiya qo'mitasi viloyat hududida ochiq shakldagi maktablarni pullik qilish haqida qaror qabul qiladi.

Arxivning 121-fondida bu haqida quyidagicha ma'lumot mavjud. Farg'ona viloyat Ijroiya qo'mitasi ijtimoiy ta'minot boshqarmasiga qarashli ochiq shakldagi maktablarni pullik shaklga o'tkazish haqida Majburiy Farmon:

1924 – 1925-o'quv yilidan boshlab shahar maktablarida o'qish uchun to'lov ota-onalarning mablag'iga shartnoma asosida quyidagicha belgilansin:

1-daraja. Oylik ish haqlari oyiga 40 rubl bo'lgan ishchi va xodimlar o'qish uchun to'lovlardan butkul ozod qilinsin; 2-daraja. Oylik ish haqlari oyiga 40 rubldan 60 rublgacha bo'lgan ishchi va xodimlar o'qish uchun to'lovni belgilangan narxning 5% miqdorini to'laydilar; 3-daraja. Oylik ish haqlari oyiga 60 rubldan 80 rublgacha bo'lgan ishchi va xodimlar o'qishi uchun to'lov belgilangan narxning 10% miqdorida belgilansin; 4-daraja. Erkin mehnat bilan mashg'ul bo'lgan kasb egalari vrachlar, advokatlar, rassomlar va hunarmandlar, savdogarlar, yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchi barcha fuqarolar o'qishlari uchun to'lanadigan haq miqdori maktabda tashkillangan komissiya tomonidan belgilanadi.

Tegishli hujjatlarni taqdim etgan quyidagi fuqarolar o'qish uchun to'lovlaridan ozod etiladi:

A) Qizil armiya safida xizmat qiluvchi harbiy hizmatchilar farzandlari; B) Stroxkassadan (ijtimoiy ta'minot) ishsizlik nafaqasini oluvchi ishsizlar; V) Mehnat va mudofaa nogironlari; G) Maorif Xalq boshqarmasi (MXB) da xizmat qiluvchi maktab ishchilari. Fuqarolar o'qishlari uchun to'lanadigan haq miqdori maktabda tashkillangan komissiya tomonidan belgilanadi. Komissiya tarkibiga MXB inspektori, maktab direktori, ota-onalar umumiy yig'ilishida saylangan vakillik a'zosi va maktab kasaba uyushmasi raisi kiradi [11:311].

Bizga ma'lumki, maktab ta'lim oluvchi o'quvchilarni nazorat qilish va ijtimoiy jihatdan himoya qilish masalalari ham hukumat nazoratida bo'lgan. Bu haqida viloyat arxivi fondlarida yetarlicha ma'lumot mavjud. Masalan, Maorif Xalq Komissarligining 1928-yil 28-fevraldagi buyrug'i bilan bolalar ijtimoiy inspeksiyasi tashkil etilgan [12:10], shu bilan birgalikda, maktablarning qat'iy o'qituvchi va ishchi-xodimlar shtatini o'rnatish masalasiga ham e'tibor berilgan [13:11]. Bundan tashqari, mavjud maktablarni milliy tildagi darsliklar bilan ta'minlash masalasida ham arxiv fondlarida ma'lumotlar berilgan. Masalan, 1929-yili O'zbekiston hududidagi tojik tilli maktablarga milliy tilda kitoblar yetkazib berish masalasida Davlat nashriyoti bilan shartnoma tuzish kerakligi, nashriyot bu orqali maktablarga milliy tilda darsliklar yetkazib berishi ta'kidlangan [14:57].

Arxivda Farg'ona viloyat rejalashtirish qo'mitasining 1924-yil 6-sentyabrdagi prezidiumining Maktab tizimini mahalliy budjetga o'tkazish masalasiga oid qimmatli raqamli ma'lumotlar mavjud. Unga ko'ra, maktab tizimini mahalliy budjetga o'tkazilishi Farg'ona viloyati bo'yicha 1924-yil 1-sentyabr holatiga quyidagicha belgilangan: [15:13].

3.1.4-jadval

No	Shaharlar nomi	Barcha sinflar	Mahalliy budjet tarkibidagilar	Mahalliy budjetiga o'tkazilgan jami sinf	Qayta qabul qilingan sinflar	Aholi budjetida qolgan sinflar
1.	Qo'qon	75	37	62	25	
2.	Andijon	29	18	25	7	
3.	Marg'ilon	15	4	12	8	
4.	Namangan	21	4	13	9	
5.	Farg'ona	28	22	24	2	
6.	O'sh	15	6	8	2	
<b>Jami</b>		<b>183</b>	<b>91</b>	<b>144</b>	<b>53</b>	<b>39</b>

1924/25-yil 1-oktyabrdan ushbu raqamlar quyidagicha bo'lishi belgilangan:

3.1.5-jadval

No	Uezdlar nomi	Barcha sinflar	Mahalliy budjet tarkibidagilar	Mahalliy budjetiga o'tkazilgan jami sinf	Qayta qabul qilingan sinflar	Aholi budjetida qolgan sinflar
1.	Qo'qon	65	-	55		
2.	Andijon	74	-	58		
3.	Marg'ilon	46	-	37		
4.	Namangan	41	-	32		
5.	Osh	36	-	8		
<b>Jami</b>		<b>262</b>	<b>-</b>	<b>190</b>	<b>-</b>	<b>72</b>

Ushbu jadval va ma'lumotlardan biz XX asr 20-yillarida sovet hukumati ta'lim tizimiga qanchalik o'z nazoratiga olishni istamasin, moddiy qiyinchilik tufayli o'z siyosatini o'zgartirishga majbur bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Farg'ona viloyat davlat arxivi fondlarida yana xalq xo'jaligi uchun kadrlar yetkazib burishni ta'minlovchi, bilim yurtlariga qabul jarayonini tashkil etilishi haqidagi qimmatli ma'lumotlar ham mavjud. Masalan, 1928-yili Qo'qondagi temir yo'l texnikumiga talabalar qabul qilish borasida ko'rsatma qabul qilingan. Ushbu ko'rsatmaga binoan a) ajratilgan o'rinlarning 40% ga temir yo'lda ishlaydigan ishchilar farzandlari olinishi va 30 % o'ringa bolalar uyida tarbiyalanuvchilar olinishi, ishonchli shaxsga ushbu masalani XTB, Mehnat bo'limi va Bolalar komissiyasi bilan birgalikda nazorat qilinishi, bolalar uyidan nomzodlarni tanlab olish jarayonini Bolalar byurosiga qoldirilgan. b) Tayyorlov bo'limi asosan mahalliy

## TARIX

millat vakillaridan iborat bo'lgan ishchilar hunarmandar va dehqonlar oilasidan bo'lishi kerak; 2. Asosiy sinf 3 yillik o'quv hajmini tushuna oladigan shaxslardan shakllantirilishi; 3. Nomzodlarni tanlash va sinovlarni 15-avgustdan 30-avgustgacha amalga oshirilishi haqida ma'lumot beriladi. Pedagogik bilim yurtlari bilan birgalikda, viloyatda tashkil etilgan fabrika-zavod ta'limi (FZO) larga ham talabalarni qabul qilishda ham mahalliy millat vakillarini ustun mavqega ega bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birgalikda FZoda ta'lim oluvchi talabalar sonini yildan-yilga oshirib borish vazifasi belgilangan. Talabalikka qabul qilishda mahalliy millat vakillariga alohida imtiyoz berilishi belgilab qo'yilgan [16:3]. Ushbu ma'lumotdan yana bir ko'rishimiz mumkinki, sovet hukumati ta'lim tizimini tashkil etishda sinfiylik tamoyiliga, albatta, rioya qilgan. Birinchi navbatda kambag'al-dehqon va ishchilar oilasi bolalariga e'tibor qaratilgan. Bu esa aynan shu tabaqalar orasida hokimiyatning tayanchini yaratishga qaratilgan edi.

Shunday qilib, sovet hukumati ta'lim masalasida dastlabki davrida sovet milliy maktablarini tashkil etish va katta yoshdagilarning savodini chiqarish masalasiga asosiy e'tiborni qaratdi. Farg'ona viloyat Davlar arxivida 1920-yilga oid hujjatlarida mahalliy aholining turli millatga mansub qismining savodziligi haqida quyidagicha ma'lumotlar berilib, unda 134 nafar mahalliy turli millatga mansub aholi ro'yxati qayd etilgan. Ularning yoshlari o'rtacha 30-40 yoshlar atrofida deb ko'rsatilgan [17:2]. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun dastlab I va II bosqichli maktablarni tashkil etish, ushbu maktablar ehtiyoji uchun pedagogik bilim yurtlarini tashkil etishga asosiy urg'u berildi. Bu boradagi maktablar faoliyatini o'rganishda arxiv fondlari muhim manba hisoblanadi.

## XULOSA

O'lkada sovet hokimiyati o'rnatilganidan keyin ta'lim tizimidagi dastlabki e'tibor, sovet tipidagi milliy maktablar tarmog'ini kengaytirishga qaratildi. Bundan mahalliy aholi orasida sotsialistik tizim targ'iboti ko'zlandi. Zero, aholi savodini chiqarmasdan turib, targ'ibotni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmadi. Lekin sovet hukumatining an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan amalga oshirgan siyosati bunday maktablarni dastlabki davrda faqatgina ma'muriy markazlardagina tashkil topishiga sabab bo'ldi. O'zbek qishloqlarida esa bunday maktablarning tashkil topishi sekinlik bilan kechdi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Комилов О. Ўзбекистон миллий таълими трансформацияси тарихидан (XX асрнинг 20-йиллари). – Тошкент, 2019. – Б. 31- 37.
2. Луначарский А.В. Просвещение и революция. – Москва: Красная новь, 1924. - 71 с.
3. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. – Тошкент. O'zbekiston. 2019. – Б. 349.
4. Ўзбекистон тарихи (1917 – 1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917 – 1939 йиллар. – Тошкент. O'zbekiston. – Б. 333.
5. ФВДА. 121-фонд. 1-рўйхат. 251-йиғма жилд. 159-варақ.
6. ФВДА. 121-фонд. 1-рўйхат. 41-йиғма жилд. 13-варақ
7. ФВДА. 121-фонд. 2-рўйхат. 28-йиғма жилд. 311-варақ.
8. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 145-йиғма жилд. 10-варақ.
9. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 145-йиғма жилд. 11-варақ.
10. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 145-йиғма жилд. 3-варақ.
11. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 145-йиғма жилд. 57-варақ.
12. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 1-йиғма жилд. 10-варақ.
13. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 2-йиғма жилд. 147-варақ.
14. ФВДА. 131-фонд. 1-рўйхат. 8-йиғма жилд. 2-варақ.
15. ФВДА. 229-фонд. 1-рўйхат. 3<sup>a</sup>-йиғма жилд. 20-варақ.
16. ФВДА. 52-фонд. 1-рўйхат. 5-йиғма жилд. 44-варақ.
17. ФВДА. 83-фонд. 1-рўйхат. 16-йиғма жилд. 1-варақ.